

QIRG'IZ VA O'ZBEK TILLARIDA SON KATEGORIYASINING MORFOLOGIK USULDA IFODALANISHI

Abdurahmonov Islom Abdulakim o'g'li

Andijon davlat universiteti, O'zga tilli guruhlarda rus tili 2-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6812035>

Annotatsiya. Grammatik kategoriyalardan biri bo'lgan son kategoriyasi qirg'iz, o'zbek tilshunosligida deyarli bir xil. Otlarning ko'pligi -lar ko'shimchasi orqali ifodalanadi: o'quvchilar, kitoblar, kiyimlar kabi.

Kalit so'zlar: grammatik kategoriyalar, morfologik shakllar, morfologik usullar.

МОРФОЛОГИЧЕСКОЕ ВЫРАЖЕНИЕ КАТЕГОРИИ ЧИСЛА В КЫРГЫЗСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация. категория числа, являющаяся одной из грамматических категорий, практически идентична в киргизском, узбекском языкознании. Множественное число существительных выражается через суффикс-Лар: как ученики, книги, одежда.

Ключевые слова: грамматические категории, морфологические формы, морфологические методы.

MORPHOLOGICAL EXPRESSION OF THE NUMBER CATEGORY IN KYRGYZ AND UZBEK LANGUAGES

Abstract. The number category, which is one of the Grammatik categories, is almost the same in Kyrgyz, Uzbek linguistics. The abundance of nouns is expressed through the help of -s: like schoolchildren, books, clothes.

Keywords: grammatic categories, morphological forms, morphological methods.

KIRISH

Otlarning birlik va ko'plik shakllarida ishlatilishi grammatik son kategoriyasi deyiladi. Son kategoriyasi otlarning muxim morfologik belgilaridan bo'lib, birlik va ko'plik shakllari asosida son kategoriyasi vujudga keladi. Otlarning birligi biror vositasiz ifoda etiladi, ya'ni otlarning -lar qo'shimchasi mavjud bo'lmagan holati birlikdir: kiyim, uy, ovqat, o'quvchi, kitobxon, murabbiy kabi. [3. 420 b].

Otlarning ko'pligi -lar ko'shimchasi orqali ifodalanadi: o'quvchilar, kitoblar, kiyimlar kabi. Ko'plikning -lar qo'shimchasi orkali ifodalanishi morfologik usul bilan ifodalangan ko'plikdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Otlarning birlik va ko'plik shakllarida ishlatilishi yuzasidan "Кыргыз тилинин грамматикасы", "O'zbek tilidan ma'ruzalar to'plami" kabi ilmiy-nazariy manbalar qisman o'rganilgan. Mazkur kitoblarda keltirilgan -lar qo'shimchasiga oid qoidalar dunyo adabiyotining zabardast adiblari Ch.Aytmatov, A.Qodiriylar asarlari misolida keng ko'lamda tahlilga tortilgan. Qirg'iz xalq yozuvchisi Tulagan Qosimbekov hamda O'zbek xalq yozuvchisi Abdulla Qaxxor asaridan parchalar berilgan.

Grammatik kategoriyalardan biri bo'lgan son kategoriyasi qirg'iz, o'zbek tilshunosligida deyarli bir xil. Qirg'iz tilining o'ziga xos fonetik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, bu kategoriyaning birgina grammatik vositasi -lar ning fonetik variantlari ko'p. Bu ko'shimcha qo'shilgan so'zning unli-undosh bilan tugaganiga lar ularning akustik-artikulyatsion

xususiyatlaridan kelib chiqib 12 hil variant qo'llaniladi : -лар, -дар, тар, -лор, -дор, -тер, v.x. [1. 120 b].

- лар qo'shimchasi kuyidagi ma'nolarni ifodalaydi:

1. Narsa-buyumlarning ko'pligini bildiradi. Biroq ularning soni qancha ekanligini anik ifodalamasdan, umumlashtirib ko'rsatadi:

O'zbek tilida: Sojidaning badiiy kitoblari ko'p.

Qirg'iz tilida: Сурмакан жузунон улуу аялдар суйлосо да, байбичелер суйлосо да туурадан алардын кебин буза берди (Т. С).

2. Donalab sanab bo'lmaydigan predmet nomlariga ko'shilganda ularning turlarini, navlarini bildiradi: tuzlar, sutlar, yog'lar, unlar, qirqmalar (qovun turi).

O'zbek tilida: Tilimni tilingni ming tilim qilgan, Qirqmalar bog'ladi yugin qovg'aga. (F.F.).

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Qirg'iz tilida: Элет жеринде столго кристал идиштерди, кымбат коняктарды коймой гана мода болуп кирген учур (Ч. А.).

3. Mavhum otlarga ko'shilganda, shu otdan anglashilgan ma'no kuchayadi: o'zbek tilida: Ming yillik hayollarga borib qaytdi (A.Qod.).

Qirg'iz tilida: Алардын керген азап-тозокторун айтпа! Ал елдин урп-адаттари да башкача екен. К. айлында кеп жан,ылыктар, далай азгаруулар болду. (Т. С) [1.928 b].

4. Predmetlarning noaniq bo'lgan ko'p mikdorini ifodalaydi:

O'zbek tilida: Biz bo'lajak adiblar turmushning botqoq yerlarinigina emas, undan chikish yo'llarini ham ko'rsatishimiz mumkin. (A.Q.)

Qirg'iz tilida: Бул создорду тараткандар - жогорку кечунун балдары. Бир жолу чыккандар так кулактын тубунон кыйкыргандай болуп угулат (Т.С).

5. Qarindoshlik ifodalovchi otlarga egalik qo'shimchalaridan keyin qo'shib, hurmat ma'nosini ifodalaydi: otamlar, onamlar kabi.

Qirg'iz tilida: Тигил олтурган киши жакын агаларыбыз.

5. Shaxsni anglatuvchi so'zlarga qo'shib, piching, kesatish va hurmat ma'nolarini anglatadi.

O'zbek tilida: o'zimning bu xizmatim evaziga bir mukofat olish muddaosida bo'lmaganimdan va nimaiki janoblari yo'lida mashaqqat chekkan bo'lsam... (A.Qod.)

Qirg'iz tilida -лар qo'shimchasi II shaxs birlik sondagi sen degan olmoshga qo'shilganda, ko'plikni emas, hurmat ma'nosini ifodalaydi: Ayilga **силер** да бардын,ар беле? (**сиз** degan ma'noga yakin).

6. Payt, vaqt bildiruvchi so'zlarga ko'shib, taxmin ma'nosini ifodalaydi: o'zbek tilida: Shu gapdan bir hafta chamasi keyin va chorlar kutishning beshinchikunlari edi. (A.Kod.)

Qirg'iz tilida: Жашы отуздарга барып калган кара сур киши екен. (К.Тин.).

7. Juft predmetlarni bildirgan so'zlarga qo'shilganda ko'plikni emas, balki ularning ikkitaligini ta'kidlash ma'nosini ifodalaydi:

O'zbek tilida: Bekabegimning ko'zlaridagi tikanlar sal kamayganday bo'ldi. (P.Q)

Qirg'iz tilida: Айимжан байбиченин беттери кызарип, коздору канталай тушту (Т. С).

8. Atoqli otlarga qo'shilganda umumlashganlik, o'xshaganlik ma'nolari anglashiladi:

O‘zbek tilida: Ajoyib nayelsiz, sizdagi talant, Amular, Sirlarning mazmunidan mo‘l. (F.F.)

Qirg‘iz tilida: Асман, Капар, Жакыптардин келинчектери бирге (Т С).

XULOSA

Yuqoridagi misollar va tahlillardan ko‘rinib turibdiki, -lar qo‘shimchasi o‘zbek va Qirg‘iz tillarida bir xil ma‘no va vazifaga ega. Bu esa, birinchi navbatda, mazkur tillarning bitta til oilasiga mansub ekani bilan izohlanadi. Ya‘ni, har ikki tilda otlarning ko‘pligi -lar qo‘shimchasi orqali ifodalanadi: o‘quvchilar, kitoblar, kiyimlar kabi. O‘zbek va qirg‘iz tillarini bir oilaga mansub ekanligi ijtimoiy siyosiy holati juda yaqin ekanligini tushunish lozim.

REFERENCES

1. “Азыркы кыргыз адабий тили”. Ч.Айтматов атындагы Тил жана адабият институту. Бишкек – 2009 - 928 бет
2. Турсунов А. “Кыргыз тилинин грамматикасы” : морфология. Жогорку окуу жайларынын филология факультеттеринин студенттерине арналган окуу китеби. - Фрунзе, 1964 – 120 бет
3. Erkaboyeva N. “O‘zbek tilidan ma‘ruzalar to‘plami”. “Akademnashr”, Toshkent-2013 – 420 бет